

MINTAQAVIY SIYOSAT VA ISHLAB CHIQUVNI JOYLASHTIRISH SAMARADORLIGI

Olimov Shohijahon Fozilxon o'g'li

Namangan davlat universiteti

Iqtisodiyot fakulteti

Iqtisodiyot yo'nalishi 3-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8363298>

Annotatsiya. Ushbu maqolada mintaqaviy siyosat o'rganilib undagi ishlab chiqarishni joylashtirishdagi va sotuvdagi shart-sharoitlarni yaratish o'rganilgan.

Abstract. In this article, the regional policy is studied, and the creation of conditions for the placement of production and sales in it is studied.

Kalit so'zlar: mintaqaviy siyosat, mintaqaviy iqtisodiyot, etnografik, geografik.

Kirish. Hozirgi davrda dunyo mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti o'zining ma'no-mazmuni jihatidan oldingi bosqichlardan keskin farq qiladi. Bunda eng asosiy va muhim jihat – milliy iqtisodiyotlarning tobora integratsiyalashuvi va globallashtiruvining kuchayib borishidir. Ayni paytda bu jarayonlar xalqaro maydondagi raqobatning ham keskinlashuviga, har bir mamlakatning xalqaro mehnat taqsimotidagi o'z mavqeini mustahkamlash uchun kurashining kuchayishiga ham ta'sir ko'rsatadi.

Biroq, o'z o'rnida ta'kidlash lozimki, jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuv va globallashtiruvning ijobiy tomonlari bilan bir qatorda ma'lum ziddiyatli jihatlari ham mavjud. Jumladan, turli mamlakatlardagi iqtisodiy rivojlanishning bir tekisda bormasligi, dunyo mamlakatlari o'rtasida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jihatidan tafovutning, ekologik tahdidlarning kuchayib borishi, turli mamlakatlarda aholi soni o'zgarishining keskin farqlanishi kabi holatlar jahon xo'jaligining yaxlit tizim sifatida barqaror rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Shuningdek, mazkur jarayonlarining yana bir xususiyatli jihati – jahonning bir mamlakatida ro'y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy larzalarning muqarrar ravishda boshqa mamlakatlarga ham o'z ta'sirini o'tkazishi hisoblanadi. Jahon hamjamiyati bugungi kunda boshidan kechirayotgan moliyaviy inqiroz ham aynan shu ma'noda globallashtiruv jarayonlarining salbiy oqibati sifatida namoyon bo'ladi.

Asosiy qism.

Mintaqaviy iqtisodiyot ishlab chiqarishni joylashtirishni tartibga solish va mintaqaviy rivojlanishning iqtisodiy samaradorligini oshirish mexanizmini tadqiq etadi. Mintaqa rivojlanishi mehnat unumdorligi dinamikasi, milliy daromad yoki yalpi milliy mahsulotni hududiy ko'rsatkichlari, asosiy fondlarning tarkibi va samaradorligi, baholar va tariflarning hududiy ko'rsatkichlari va shu kabilar bilan baholanadi.

Mintaqaviy iqtisodiyot mintaqalarning iqtisodiy muammolarini tadqiq etish bilan cheklanmaydi. U mintaqaga aloqador bo'lgan ekologik, demografik, geografik, etnografik muammolarni, sotsiologiya, siyosatshunoslik, shaharsozlik va boshqa fanlarga oid masalalarni ham har tomonlama o'rganadi.

Tabiiy resurslar va boshqa imkoniyatlardan kelib chiqqan holda o'tish iqtisodiyotiga ega mamlakatlar iqtisodiyoti quyidagi stsenariy bo'yicha rivojlanishi mumkin.

1. Bozor munosabatlarining evolyutsion yo'l bilan rivojlanishi.

2. Bozor munosabatlariga tez sur'atlar bilan o'tish;

3. Bozor munosabatlari elementlarini astasekin tatbiq etilishi va rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solib turilishi. Taraqqiyotning evolyutsion yo'lini hayotga tatbiq etish juda mushkul.

Bozor munosabatlariga tez o'tish qisqa vaqt ichida inflyatsiya va narhnavoning undan ham tez sur'atlarda o'sishiga olib kelishi mumkin. Natijada ishlab chiqarish hajmi pasayadi, ishsizlik ko'payadi, investitsiyalar hajmi ham qisqaradi, bu esa asosiy ishlab chiqarish fondlarining eskirishiga olib keladi. Bunday vaziyatda bozor munosabatlari elementlarini astasekin tatbiq etishga asoslanuvchi davlat tomonidan tartiblashtirilib turuvchi stsenariy eng real va ilmiy asoslangan hisoblanadi.

Asosiy islohotchi davlat bo'lgan mamlakatda ishlab chiqarish salohiyati saqlanadi, bozor iqtisodiyoti bilan aloqador bo'lgan o'zgarishlarning ijtimoiy oqibatlari yumshatiladi va ayrim hududlarni shakllanayotgan bozor munosabatlariga moslashtirish uchun zaruriy sharoitlar yaratiladi.

Mazkur iqtisodiy rivojlanish stsenariysi bosqichma bosqich amalga oshiriladi:

- 1) Xo'jalik tizimini qayta tashkil etishni va inqirozdan astasekin chiqishni;
- 2) Ishlab chiqarish va ijtimoiy sohalarning tarkibini shakllanishi va barqarorlikni;
- 3) Mintaqani majmual va balanslashtirilgan tarzda rivojlanishini ta'minlaydi.

Mintaqaning bozor iqtisodiyotiga o'tishining birinchi bosqichi uchun ijtimoiy iqtisodiy vaziyatning barqarorligi hamda ishlab chiqarishning mavjud tarkibini o'zgartirilishi bilan bog'liq bo'lgan faollikning pasayishi, investitsiyalar oqimi xos bo'ladi. Bu bosqichda bozor munosabatlari elementlari shakllana boshlaydi, tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqaruvchilar o'rtasida raqobat hosil qilinadi. Shu bilan birga ijtimoiy soha mintaqalarning byudjetlarida mablag'larning yetishmasligi sababli, rivojlanishdan deyarli to'xtaydi.

Ikkinchi bosqich – odatda yangi texnologiyalar sohasida investitsion faoliyatni faollashishi bilan boshlanadi. Shunday yondashuv raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishga va mintaqqa sanoatining rivojlanishiga keng yo'l ochadi.

Yangi ish joylarining barpo qilinishi ishsizlikning kamayishi va aholini harid qilish imkoniyatlarini kengayishi uchun sharoit yaratadi.

Mintaqaviy bozorning asta-sekin shakllana borishi mintaqqa iqtisodiyotining balanslashganligini yaxshilashga imkon beradi. Chunonchi:

- a) sanoatda «A» va «B» guruhlar o'rtasidagi disproportsiya kamayadi;
- b) Agrosanoat majmuasida tayyorlovchilar va qayta ishlovchilar o'rtasidagi munosabatlar ekvivalent asosida shakllana boshlaydi;
- v) ijtimoiy xizmatlarga bo'lgan talab o'sa boshlaydi.

Uchinchi bosqich majmual va balanslashgan holda rivojlanishni ta'minlaydi.

Markaziy boshqaruv organlari ishlab chiqarishni birinchi navbatda ekstremal va yangi o'zlashtirilgan rayonlarda tashkil qilishni; yirik ekologik va ijtimoiy aloqalarni o'rnatishni; mintaqalararo va davlatlararo iqtisodiy aloqalarni tashkil qilishni tartiblashtirib turishi lozim. Boshqarishning mintaqaviy organlari asosiy e'tiborni maxalliy resurslardan samarali foydalanish, xo'jalik tarkibini takomillashtirish masalalarini, ekologik va ijtimoiy muammolarni hal qilishga qaratishi kerak.

Mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal qilish bilan bog'liq har bir aniq holatda o'zlariga xos xususiyatlarni hisobga olib, iqtisodiy mexanizmning u yoki bu turidan foydalanishi mumkin.

Mintaqaviy siyosat xo'jalik faoliyati va faravonlikni ta'minlagan asoslarni, resurslarni hududlar o'rtasida taqsimlanishini ifodalovchi proporsiyalarni o'zgartirishga yo'naltirilgan. Mintaqaviy iqtisodiyotning asosiy elementlari qatoriga iqtisodiy, tarkibiy, investitsion, byudjet, soliq, tarif, instituttsional va ijtimoiy siyosatlar kiritiladi.

Mintaqaviy iqtisodiyot tamoyillarini hayotga tatbiq etish asosi bo'lib bir tomondan mamlakatning hududiy-ma'muriy tuzilmasi, ikkinchi tomondan uning iqtisodiy rayonlashtirish tizimi xizmat qiladi.

Davlat mintaqaviy siyosatining bevosita ob'ektlari bo'lib O'zbekiston Respublikasida viloyatlar va Qoraqalpog'iston Respublikasi va iqtisodiy rayonlar hisoblanadi.

Mintaqaviy siyosat davlat xokimiyati organlarining uni iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy rivojlanishini boshqarish bo'yicha faoliyati sohasidan iboratdir.

Mintaqaviy siyosat davlatni qo'llash tadbirlari tizimi sifatida xilmaxil faoliyat yo'nalishlarini qamrab oladi. Shu jumladan:

- 1) harakatlantiruvchi kuchlar va omillar hamda mintaqaviy taraqqiyot mexanizmlarining tahlili va bashoratini;
- 2) iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishni boshqarishning umumdavlat va mintaqalar manfaatlarini muvofiqlashtirishni;
- 3) depressiv rayonlar iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi strategiyasini;
- 4) inqirozli vaziyatni bartaraf qilish maqsadida demografik, migratsion, ekologik va boshqa jarayonlarning monitoringini.

Bozor munosabatlariga o'tish iqtisodiy rayonlashtirish maqsadi va parametrlarining o'zgarishiga sabab bo'ladi. Bunda asosiy vazifa etib aholining tovarlar va xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish hisoblanadi.

Mintaqaviy siyosat asoslari bo'lib quyidagilar ilgari suriladi:

- 1) mintaqaviy siyosatning iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy va tashkiliy asoslarini ta'minlash, yagona iqtisodiy makonni tashkil etish;
- 2) mintaqalarning iqtisodiy imkoniyatlaridan qat'iy nazar fuqarolarning ijtimoiy huquqlarini kafolatlash, ularni teng huquqli ijtimoiy himoya bilan ta'minlash;
- 3) mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti shartsharoitlarini yaqinlashtirish;
 - 4) atrofmuhit ifloslanishining oldini olish, ifloslanish oqibatlarini tugatish, mintaqalarni majmual ekologik muhofaza bilan ta'minlash;
 - 5) alohida muhim strategik ahamiyatga ega mintaqalar rivojlanishiga ustuvor ahamiyat qaratish;
 - 6) mintaqalarda mavjud tabiiy resurslardan imkoniyati boricha ko'proq va to'laroq foydalanish.

Mintaqaviy siyosat majmual hususiyatga ega bo'lishi lozim, ya'ni unda iqtisodiy, ijtimoiy va ma'muriy sohalar o'rtasida o'zaro aloqadorlik ta'minlanishi nazarda tutilishi kerak. Mintaqaviy siyosatning iqtisodiy sohasi o'zaro aloqador qator muammolarni o'z ichiga oladi:

- davlatning birbutunligi va barqarorligining iqtisodiy asoslarini mustahkamlash;
- barcha mintaqalarda ko'p ukladli iqtisodiyotni shakllantirish, tovarlar, mehnat va sarmoyaning mintaqaviy va umumdavlat bozorlarini, instituttsional va bozor infrastrukturalarini rivojlantirish;

- mintaqalar iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi darajasida mavjud chuqur farqlarni qisqartirish;
 - mintaqalar xo'jaligi tarkibini iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan samarali hisoblangan majmualari rivojlanishini ta'minlash;
 - transport, aloqa, informatika va boshqa infrastrukturaning mintaqalararo tizimlarini rivojlantirish;
 - mamlakatni iqtisodiy rayonlari tizimi va rayonlashtirish yondashuvini takomillashtirish.
- Iqtisodiy siyosatni hayotga tatbiq etish metodlari va shakllari qatorida prognozlashtirish va dasturlashtirish ustuvor ahamiyatga ega.

Mintaqaviy ijtimoiy siyosatda aholining turmush darajasi, bandligi, ekologik havfsizligi alohida ahamiyat kasb etadi. Davlat birinchi navbatda tadbirlar tizimini qo'llaydigan mintaqalarga inqiroz holati mavjud rayonlar kiritiladi. Odatda besh turdagi inqiroz holati mavjud rayonlar ajratiladi.

- milliy, diniy va etnik mojarolar, nizolar mavjud rayonlar;
- bo'sh rivojlangan rayonlar;
- depressiv rayonlar;
- ishlab chiqarish va aholi benihoya zich joylashgan rayonlar;
- ekstremal sharoitlarga ega, sanoati rivojlangan rayonlar.

Iqtisodiy mintaqalarning shakllanishi ob'ektiv jarayon bo'lib, u hududiy mehnat taqsimoti rivojlanishining mahsulidir. Iqtisodiy rayonlashtirish asosida iqtisodiy, milliy va ma'muriy tamoyillar yotadi.

Mazkur tamoyillar iqtisodiy rayonlashtirish amaliyoti tomonidan bir necha o'n yillar mobaynida sinovdan o'tmoqda. Rayon hosil qiluvchi omillar qatoriga tabiiy resurslarning, dastavval foydali qazilma konlarining mavjudligi, aholi zichligining yuqoriligi, iqtisodiyotning ixtisoslashuvi, aholi bandligi va boshqa holatlar kiritiladi.

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy rayonlashtirish asosiga ma'muriy tamoyil qo'yilgan, ya'ni rayonlashtirishda avvalo hududiy ma'muriy tuzilma hisobga olinadi.

Xulosa. Tavsiya qilinayotgan o'tishning asosiy qoidalari bo'lib, davlat manfaatlari ustunligiga rioya etish, barcha turdagi mulk va turli darajalarda xo'jalik yuritish uchun korxonalarga qulay shart-sharoitlarni shakllantirish, mintaqani bir butun, yaxlit sifatida yondoshgan holda, rivojlanishni kompleksligi va mutanosibligini ta'minlash hisoblanadi.

Mintaqaviy statistikaning sifati va ob'ektivlik darajasini pastligi hisobga olgan holda, amaliyotda vaziyat, muammo va alohida hududlarni rivojlantirishni prognozlashtirish bo'yicha tadqiqotlarni olib borishda anketa so'rovi usulidan keng foydalanish taklif qilindi.

References:

1. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish – davr talabi. Prezident Islom Karimovning 2008 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2009 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2009 yil 14 fevral.
2. Vahobov A. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitidagi muhim omillar. – O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi, №5, 2000, 5-9-b.